HA 85.1

H. EGAMOV

# RANGTASVIR



Книга должна быть
возвращена не позже
указанного здесь срока

Количество предыдущих
выдач

ООО «Чирчи

85.1
E 18

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

H. EGAMOV

# RANGTASVIR

*O'quv qo'llanma*

4428
1633
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT VILOYATI CHIRCHIQ
DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
AXBOROT RESURS MARKAZI

CHIRCHIQ
IJTIMOIY-IQTISODIYOT
KOLLEJI
AXBOROT-RESURS
MARKAZI

18

CHIRCHIQ SH... AR IJTIMOIY
IQTISODIY VA ... ISHIY BIZMAT
KASB-H... AR KOLLEJI
KUTUBXONA
4428

TOSHKENT — 2005

85.128
E18

O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi ilmiy-metodik Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan

Taqrizchilar: Nizomiy nomidagi TDPU kafedra mudiri, pedagogika fanlari doktori, professor ***Saidaxbor Bulatov.***
O'z PFITI katta ilmiy xodimi, pedagogika fanlari nomzodi ***Asqarali Sulaymonov.***

**H. Egamov.**
Rangtasvir. Teatr rangtasvir san'ati yo'nalishi talabalari uchun o'quv qo'llanma. — T.: O'MKHTM, «Bilim» nashriyoti, 2005.— 160 b.

**BBK 85.128**

E $\frac{4903000000-39}{M361(04)2005}$ — 2005

© O'MKHTM, 2005- y.
© «Bilim», 2005- y.

## KIRISH

Hozirgi davrda maxsus bilimga ega bo'lgan mutaxassislarni tayyorlash xalq ta'limining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunida ham ko'rsatib o'tilgan bo'lib, turli soha mutaxassislarini tayyorlashga jiddiy e'tibor berilgan. Teatr rassomi tayyorlaydigan kollejlarda o'tiladigan rangtasvir kursi bo'lajak mutaxassislarning rangtasvir borasidagi bilim, malaka va ko'nikmalarini yanada yaxshi rivojlantirishga qaratilgan.

Odatda, tasviriy san'at mashg'ulotlari o'tiladigan kollejlarda o'quvchilar bilan ko'proq amaliy ishlar amalga oshiriladi. Rangtasvirga oid nazariy bilimlar esa o'qituvchilar e'tiboridan chetda qoladi. Bu, o'z navbatida, rangtasvir ishlash jarayonining talabalar tomonidan bir tomonlama o'rganilishiga olib keladi. Rangtasvir — tasviriy san'atning eng zaruriy tarkibiy qismi bo'lganligi uchun ham tasviriy san'at turi bilan bog'liq bo'lgan kollejlarda har tomonlama puxta o'rgatilmog'i lozim.

Kollejlarda o'tiladigan rangtasvir kursining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

— bo'lajak teatr rassomlarini rangtasvirning nazariy asoslari, rangshunoslik, prespektiva, yorug'-soyalarning o'ziga xos qonuniyatlari, rang tuslarning munosabatlari, rangtasvir ishlash texnikasi va usullari bilan amaliy ravishda tanishtirish;

— talabalarning atrof-muhitni, predmetlarni va tasviriy san'at asarlarini idrok etish malakalarini rivojlantirish;

— predmetlarning joylashgan o'rni, atrof-muhit bilan bog'liqligi, yortilganlik darajasi va o'ziga xos rang tuslari majmuasini hisobga olgan holda tasvirlay olishga o'rgatish;

— talabalarning ko'rish xotiralarini rivojlantirish, ularni xotiradan va tasavvurdan rangtasvir ishlashga o'rgatish;

— kichik o'lchamlarga ega bo'lgan ranglamalar ishlashga o'rgatish orqali talabalarning rangtasvir ishlash malakalarini yanada rivojlantirish.

Kollejlarda talabalarga rangtasvir ishlashni o'rgatishda «narsaning asliga qarab rasmini ishlash» muhim ahamiyatga ega. «Naturadan rasm ishlash» deb yuritiladigan bu mashg'ulot turi teatr rassomlarini tayyorlash tajribasida nazariy va amaliy jihatdan yetakchi o'rinni egallaydi.

Naturadan rasm ishlash jarayonida o'quvchilar atrof-muhitdagi voqea-hodisalarni haqqoniy, o'zlari ko'rganlaridek tasvirlash asoslarini o'rganadilar. Tevarak-atrofdagi narsalar esa ilhom manbayi vazifasini o'taydi. Narsaning asliga qarab rasmini ishlash jarayonida o'quvchilarning ijodiy imkoniyatlari keng rivojlanadi va borliqni haqqoniy idrok etish va tasvirlay olish malakalari tarkib toptiriladi. Talabalar tabiatning o'ziga xos qonuniyatlarini qanchalik chuqur va puxta o'rganib, o'zlashtirib borsalar, ularning hayotiy tajribalari shunchalik takomillashib, rivojlanib boradi. Shuningdek, bo'lajak teatr rassomlari ham hayot voqealariga qanchalik tez sho'ng'isalar shunchalik tez o'zlarini qiziqtirgan mavzular, voqea-hodisalarni tasvirlash yo'llarini, usullarini o'rganib oladilar. Shuning uchun ham talabalar tabiat bilan hamkorlikni uzmasliklari lozim. Atrof-muhitdagi narsalar, manzaralarni rangtasvirda haqqoniy tasvirlash talabalardan bir qancha bilim, malaka va ko'nikmalarni egallagan bo'lishlarini taqozo etadi. Bular esa nazariy va amaliy mashg'ulotlar jarayonida o'zlashtirib boriladi.

Nazariy tushunchalar ko'proq talabalarda rangtasvir ishlash yuzasidan bilim berishga qaratilgan bo'lib, bu jarayon, rangshunoslik, yorug'-soya qonuniyatlari, ranglarning munosabatlariga oid o'quv-metodik adabiyotlardan o'qib o'rganishga qaratilgan. Nazariy bilim va tushunchalarning pishiq hamda puxta bo'lishida esa amaliy mashg'ulotlarning ahamiyati kattadir. Amaliy mashg'ulotlar talabalarning nazariy bilim va tushunchalarini ish jarayonida bevosita sinab ko'rishlariga imkon beradi. Rangtasvir yuzasidan amaliy ishlarni bajarish o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlari va imkoniyatlarini yanada rivojlantirib boradi. Bunda talabalar rang, mo'yqalam, moy bo'yoq, tempera, guash bo'yog'i, akvarel, tush, pastel va shu kabi bir qancha badiiy materiallar yordamida rangtasvir ishlash metodikasi va usullarini o'zlashtiradilar.

Ma'lumki, kollejlarga to'liqsiz o'rta va o'rta ma'lumotga ega bo'lgan o'quvchilar qabul qilinadi. Bu yoshdagi o'quvchilarning dunyoqarashlari faol shakllanib, ichki dunyolari boyib, tashqi olamni idrok etish malakalari yanada rivojlanib boradi. Olamni tushunish jarayonining murakkablashuvi, o'zining ijodiy g'oyasini ifodalash va tasvirlashda o'quvchilarning umumta'lim maktablarida tasviriy san'at dasturi bo'yicha olgan bilim va malakalari kamlik qiladi. Bu esa, o'z navbatida, o'quvchilarga nazariy va amaliy jihatdan yangicha tushunchalar, bilim va malakalar berish lozimligini taqozo etadi.

Kollejlarda o'tiladigan rangtasvir mashg'ulotlari tasviriy san'at bilan bog'liq bilim va malakalarni o'rinli qo'llay olishga o'rgatish bilan bog'liqdir. Bunda rangshunoslik, yorug'lik va ranglarning hosil bo'lishi, rang nomlari, idrok etishning o'ziga xos qonuniyatlari, perspektiva,



plastik anatomiya, rangtasvir texnikasi va texnologiyasi hamda shu kabilar nazarda tutilgan. Naturadan rasm ishlashni, albatta, kompozitsiya, xotira va tasavvurdan rangtasvir ishlash bilan uzviy bog'lab olib borish tavsiya etiladi. Rangtasvir kursining asosiy maqsadlaridan yana biri — bo'lajak teatr rassomlarining mo'yqalam, pastel, sangina, qalam va shu kabilar bilan qog'oz, karton, mato va h. k. materiallar sirtiga rangtasvir ishlay olish mahoratini egallashlariga yordam berishdir. Chunki, o'z fikrini chiziqlar, ranglar yordamida bayon qilish va tushuntira olish tasviriy san'at o'qituvchilarining mahorati bilan bog'liqdir. Talabalarning tasviriy san'atga bo'lgan qiziqishlarini tarbiyalash va rangtasvir ishlashga o'rgatishda ularning doskada rasm ishlay olish bilimlarining o'ta rivojlangan bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bu mahorat esa kollejlarda o'tiladigan rangtasvir mashg'ulotlari jarayonida egallab boriladi. Talabalar rangtasvir ishlash yuzasida qanchalik ko'p mustaqil ish bajarsalar, o'zlariga bo'lgan ishonchlari ham shunchalik ortib boradi. Har bir topshiriq va uni bajarishga bo'lgan talablarning o'ziga xos maqsad va vazifalari mavjud. Shunga ko'ra har bir darsni o'tishda mas'uliyat bilan yondashish tavsiya etiladi.

Rangtasvir ishlash bo'yicha talabalarning ko'nikmalarini orttirishda teatr sahnalarida o'tiladigan amaliy tajribalarning ahamiyati katta. Rangtasvir kursining asosiy vositasi sifatida o'tiladigan mashg'ulotlar talabalarni sahna hayotiga ko'niktirib, o'rgatib borish bilan birga, ularni rejissorlar bilan ishlash, o'zlarini tuta bilish, pyesaga mos keladigan sahna asarlarini yaratish mahoratlarini egallashlariga yaqindan yordam beradi.

Rangtasvir ishlashni o'rgatish jarayonida tezda kerakli muvaffaqiyatga erishishga yoki uni sun'iy ravishda ko'pirtirishga urinmaslik lozim. Shuningdek, bir o'quv topshirig'ini bajarishdan ikkichisiga o'tishga shoshilish kerak emas. Bundan tashqari, kursni tezda yakunlash maqsadida, talabalarning rangtasvir ishlashdagi mahoratlarini oshiradigan ayrim bosqichlarni ham chetlab o'tish tavsiya etilmaydi. Talabalarning mutaxassislik bo'yicha tajribalarini boyitadigan ishning boshlang'ich qismi, qalam tasvirini tuzishdagi o'ziga xos ketma-ketliklar, rangtasvir ishlashdagi qonun-qoidalarni puxta o'zlashtirib borishdan iborat.

Talabalarning rangtasvir ishlash yuzasidan zarur bo'lgan yutuqni qo'lga kiritishlariga «oddiydan-murakkabga» prinsipi asosida bilim va ko'nikmalarini reja asosida, ma'lum tizimga ko'ra egallab borishlarini tashkil etish orqaligina erishish mumkin. Shuningdek, o'quv topshiriqlarini ham qiyin yoki oson, qiziqarli bo'lmagan guruhlarga bo'lish ham tavsiya etilmaydi. Chunki, dasturda ko'rsatilgan har bir o'quv topshirig'i, uy vazifasi va mustaqil ishlarning o'z oldiga qo'yilgan maqsad

va vazifalari mavjud. Shunga ko'ra talabalar u yoki bu nazariy hamda amaliy bilimlar, ish usullarini o'rganib boradilar. Demak, har bir o'quv topshirig'ini talabalarga tushuntirishda uning o'ziga xos maqsad va vazifalarini hisobga olgan holda mas'uliyat hissi bilan yondashish kerak.

Talabalarning mustaqil ishlari ularning rangtasvir kursi yuzasidan olgan bilim, malaka va ko'nikmalarini yanada mustahkamlashda muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, ular o'z ustilarida tinmay izlanish olib borishlari kerak bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, tasviriy san'at yuzasidan nashr etilayotgan o'quv-metodik qo'llanmalar, ko'rgazmalar va shu kabilar bilan hamisha tanishib borishlari lozimligini taqozo etadi.

# I bo'lim. RANGLAR HAQIDA UMUMIY TUSHUNCHA

Quyosh tabiatdagi yorug'lik manbayidir. Quyosh nuri esa juda murakkab yorug'lik bo'lib, uni uchburchakli shisha prizmadan o'tkazilsa, ekranda bir necha tusga ajralib ko'rinadi. Buni birinchi marta ingliz olimi Isaak Nyuton tajriba qilib ko'rgan. Olim qorong'i xonaga kichkina teshikdan quyosh nurini tushirgan va nur uch yoqli shisha prizmadan o'tganda ekran sirtida spektr ranglarining hosil bo'lishini kuzatgan. Uning eng kam singan pastki qismi qizil rang, eng ko'p singani esa binafsha rang bo'lib, oralig'ida zarg'aldoq, sariq, yashil, zangori va havo ranglardan iborat ranglar polosasi joylashadi. Diqqat bilan qaralganda esa, bir rangdan ikkinchisiga asta-sekin o'tishdagi oraliq masofada shu ikki rangga yaqin bo'lgan birqancha rang tuslarini ko'rish mumkin. Turli xil rang polosalari o'rtasida ma'lum bir chegara yo'q. Chunki har qaysi rang asta-sekin o'zgarib, boshqa rang tusiga o'tadi. Bunda rang tuslarining nihoyatda tiniqligi va boyligi kishini hayratda qoldiradi.

Oq rangdagi yorug'lik nurining shisha prizma orqali taralishidan hosil bo'ladigan rangli nurlar polosasini Nyuton «Quyosh spektri» deb atadi (I rangli ilovaga qarang)*. Olim mazkur nurlarni linza yordamida to'plab, yana uchburchakli prizmadan o'tkazganida esa avvalgidek quyoshning oq nuri hosil bo'ldi. Mazkur rang tusining qanday hosil bo'lishini tayyor bo'yoqlar yordamida ko'rish uchun biz kartondan doira qirqib olsak va uni spektr ranglari tartibida qizil, zarg'aldoq, sariq, yashil, zangori va havo ranglarga bo'yab chiqib, o'z o'qi (masalan, ventilator yoki pildiroqning o'qiga o'rnatib) atrofida tez aylantirsak, umumiy ko'rinishdagi kul rang tusni kuzatamiz (1-rasm). Lekin xuddi shu usulda uchta asosiy ranglar — qizil, sariq va zangori ranglarga bo'yalgan doira kartonni aylantirganimizda esa yanada yorug'roq bo'lgan och kul rang hosil bo'ladi.



1-rasm.

Bordi-yu, shu yetti xil rangni palitrada aralashtirib ko'rsak, qoramtir tusdagi ko'rimsiz aralashma hosil bo'ladi. Tabiatda esa spektr ranglarini har zamonda osmonda paydo bo'ladigan kamalakda, shudring tomchilarida yaqqol ko'rish mumkin.

Shuni esda tutish lozimki, har xil yorug'lik manbalaridan chiqadigan nurlarning spektr tarkibi bir xil bo'lmaydi va ular bir-biridan rang tuslari bilan farq qiladi. Masalan, elektr chirog'idan taralayotgan nur kunduzgi

* Kitob oxiridagi rangli ilovaga qaralsin.